

**BALIQCILIK TIZIMIDA IQLIMLASHTIRILGAN BALIQ TURLARINING
ILMIY-AMALIY AHAMIYATI**

Odinaeva N.N.

Buxoro davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

Annotasiya. *Ushbu maqolada iqlimlashtirilgan baliq turlarini baliqchilik sohasida qo'llashning ilmiy va amaliy jihatlari keng yoritilgan. Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston suv havzalari misolida introduksiya qilingan baliq turlarining mahsuldorlikka, biologik barqarorlikka hamda ixtiofauna tarkibiga ta'siri tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *iqlimlashtirish, introduksiya, baliqchilik, ixtiofauna, akvakultura.*

Kirish. So'nggi o'n yilliklarda baliqchilik tarmog'ida yuqori mahsuldorlikka erishish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida turli geografik mintaqalardan keltirilgan baliq turlarini yangi ekologik sharoitlarga moslashtirish jarayonlari keng qo'llanilmoqda. Iqlimlashtirish orqali tabiiy va sun'iy suv havzalarining biologik salohiyati oshirilib, ularda mavjud ozuqa bazasidan samarali foydalanish imkoniyati yaratiladi. Bunda suv harorati, gidrokimyoviy ko'rsatkichlar, kislorod rejimi hamda biotik omillar baliq turlarining moslashuv darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, iqlimlashtirish jarayonlari suv havzalarining tabiiy imkoniyatlarini to'liq ishga solish, mahsuldorlikni oshirish va baliq yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ayrim iqlimlashtirilgan baliq turlari yuqori o'sish sur'ati, keng ozuqa spektridan foydalanish qobiliyati hamda mahalliy sharoitlarga tez moslashishi bilan ajralib turadi. Bu esa kompleks baliqchilik tizimlarini joriy etish, ekologik muvozanatni saqlagan holda yuqori hosildorlikka erishish imkonini beradi. Iqlimlashtirish deganda, baliq turlarining ilgari tabiiy holda tarqalmagan yangi geografik hududlar va gidroekologik muhit sharoitiga moslashishi tushuniladi. Ushbu jarayon murakkab biologik va ekologik omillar majmuasi ta'sirida amalga oshib, baliq organizmlarida fiziologik, morfologik hamda etologik o'zgarishlar ro'y berishini taqozo etadi. Xususan, suv harorati, kislorod miqdori, minerallasuv darajasi va gidrokimyoviy rejim kabi omillar baliqlarning yashash faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Iqlimlashtirish jarayoni fiziologik moslashuv bilan bir qatorda ozuqa munosabatlari va trofik zanjirdagi o'zgarishlar bilan ham chambarchas bog'liq. Yangi muhitda baliq turlarining mavjud ozuqa resurslaridan foydalanish qobiliyati, raqobatbardoshligi hamda ozuqa o'zlashtirish samaradorligi ularning muvaffaqiyatli iqlimlashuvini belgilab beradi. Shuningdek, ko'payish qobiliyati, tuxum qo'yish sharoiti va chavoqlarning yashovchanligi ham iqlimlashtirish samaradorligini baholovchi muhim mezonlardan hisoblanadi. Ushbu omillarni ilmiy asosda hisobga olgan holdagina iqlimlashtirish jarayoni barqaror va ijobiy natija beradi.

Iqlimlashtirilgan baliqlar, jumladan oq amur, oq do'ngpeshona va pelyada kabi turlar yuqori o'sish sur'ati va arzon ozuqa bazasidan foydalanish qobiliyati bilan ajralib turadi. Bu esa baliqchilik xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Ayrim iqlimlashtirilgan turlar suv havzasidagi ortiqcha o'simliklarni kamaytirib, tabiiy biomeliorasiya vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, nazoratsiz introduksiya mahalliy turlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekistonda o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab baliqchilik sohasini rivojlantirish, suv havzalarining biologik mahsuldorligini oshirish hamda aholini sifatli baliq mahsuloti bilan ta'minlash maqsadida bir qator qimmatbaho baliq turlari sun'iy va tabiiy suv havzalariga kiritilgan. Ayniqsa, mazkur davrda introduksiya va iqlimlashtirish ishlari ilmiy asosda olib borilib, turli geografik mintaqalardan keltirilgan baliq turlarining mahalliy gidroekologik sharoitlarga moslashuv darajasi chuqur o'rganilgan.

Amaliyot natijalari shuni ko'rsatadiki, kiritilgan baliq turlarining aksariyati O'zbekistonning iqlim sharoitiga muvaffaqiyatli moslashib, sun'iy baliqchilik havzalari, kanallar va tabiiy suv havzalarining ixtiofauna tarkibida muhim o'rin egalladi. Ular yuqori o'sish sur'ati, keng ozuqa spektridan foydalanish qobiliyati hamda mahalliy sharoitlarda samarali ko'payishi bilan ajralib turadi. Bu esa mamlakatda baliqchilik mahsulotlari hajmini oshirish, iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash va akvakultura sohasining barqaror rivojlanishiga xizmat qildi.

Baliqlarni ehtiyotkorliksiz iqlimlashtirish parazitlar va kasalliklarning tarqalishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun ilmiy monitoring va veterinariya nazorati muhim ahamiyatga ega.

Xulosa.qilib aytganda, iqlimlashtirilgan baliq turlaridan oqilona foydalanish baliqchilik sohasida yuqori mahsuldorlikka erishish imkonini beradi. Biroq bu jarayon qat'iy ilmiy yondashuv va ekologik xavfsizlik tamoyillariga asoslanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. FAO. Aquaculture Development. Rome, 2020.
2. Abdullayev M.A. O'zbekiston suv havzalarining ixtiofaunasi. Toshkent, 1989.
3. Toshov H.M. Baliqchilikda introduksiya muammolari. Farg'ona, 2018.
4. Mirabdullaev I.M., Abduraximova A.N., Kuzmetov A.R., Abdinazarov X.X. O'zbekiston eshkakoyoqli qisqichbasimonlar (Crustacea, Copepoda) aniqlagichi. Uslubiy qo'llanma. Toshkent: "Universitet", 2012. 4– 98 b.
5. Abdullaev M.A., D.U.Urchinov. Promislovie ribi vodoemov nizovev r. Zarafshan.T.:Fan, 1989. 3-70s Niyozov D.S., Toshov H.M., Qalandarova Z.D. Quyi zarafshon tabiiy suvliklarining bioekologik xususiyatlari va baliq mahsuldorligini oshirish imkoniyatlari. "O'zbekistonda hayvonot olamini o'rganish va saqlashning dolzarb muammolari" mavzusidagi respublika ilmiy konferensiya materiallari. Toshkent, 2011. - B. 73-76.

6.Toshov H.M. Buxoro viloyatida ovlanadigan baliqlar va ularning tur tarkibi. “Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish” mavzusidagi respublika ilmiy - amaliy anjuman materiallari tuplami. Farg’ona, 2018 . -B. 152-155

7.Toshov H.M., SHodmonov F.Q. Oq amur (*Stenopharyngodon idella*) o’simlikxo’r biomeliorator. “Mikroskopik suv o’tlarini va yuksak suv o’simliklarini ko’paytirish, ularni xalq xo’jaligida qo’llash” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. Buxoro, 2018 . -B. 133-135

8.Shamsiyev N.A., Kuzmetov A.R., Toshov H.M. Abdinazarov H.H. Hydrobionts of Devhona and Ayakagitma Lakes in Bukhara region . International Journal of Science and Research(IJSR), 2019.Vol.8(11). -P.1763-1769